

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 10

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 10 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамият.

## **Тахририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Фарманова Гулнара Комилевна*  
МЕТОДЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО  
СОГДА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА ..... 9-18
- Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*  
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АРХИВИ ҲУЖЖАТЛАРИДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИНГ  
ҚУРИЛИШИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ ОХИРИ-30-ЙИЛЛАР  
БОШИ) ..... 19-26
- Ахмедов Шахзод Фарход ўғли*  
МУСТАҚИЛЛИККА ЭРИШИШ АРАФАСИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ  
УМУМИЙ ҲОЛАТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАРИ ..... 27-34
- Mirsoatova Sayyora Turg'unovna*  
MARKAZIY FARG'ONA NEOLIT JAMOALARI MADANIYATI HAQIDA MULOHAZALAR ..... 35-39
- Янгибоева Дилноза Ўктамовна*  
МУҲАММАД ШАРИФЖОН МАХДУМ САДРИ ЗИЁНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ  
ФАОЛИЯТИ ..... 40-48
- Маҳмудов Эркинжон Асқаралиевич*  
АРАБЛАР ТОМОНДАН ФАРФОНАНИНГ ЗАБТ ЭТИЛИШИ ҲАҚИДАГИ МАЪЛУМОТЛАР ВА  
УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ ..... 49-53
- Yoriqulov Nasibulla Xoliyorovich*  
O'ZBEKISTON HUDUDIGA G'ARB ME'MORCHILIK AN'ANALARINING KIRIB KELISHI ..... 54-58
- Ergasheva Bahridil G'olibjonovna*  
IJTIMOIY TARMOQLARDAGI REKLAMALARNING IJTIMOIY-MA'NAVIY HAYOTGA TA'SIRIGA  
DOIR MULOHAZALAR (ETNOSOTSIOLOGIK TAHLIL) ..... 59-65
- Абдухамидов Исломбек Абдухалим ўғли*  
МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ..... 66-74
- Boltayeva Moxichehra Jamshid qizi*  
XORIJIIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA  
ERISHILGAN KO'RSATKICHLAR (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) ..... 75-80
- Кандахаров Анваржон Хасанович, Бабаярова Шахноза Шухратовна*  
БУХОРО ХОНЛИГИДА АБДУЛЛАХОН II ДАВРИНИНГ ҚУРИЛИШ ИНШООТЛАРИ  
ТАРИХИГА БИР НАЗАР ..... 81-86

### 8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Boltayev Nurali Shiramatovich*  
AGRAR OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING  
BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ..... 87-93

<i>Дустова Мухайё Худайбердиевна</i> РОСТ, УСТОЙЧИВОСТЬ, ДОХОДНОСТЬ: ЭКОНОМЕТРИКА ФИНАНСОВЫХ ПОТОКОВ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ .....	94-102
<i>Ravshanov Malik Naimovich</i> METHODOLOGY FOR DETERMINING THE NEED FOR ECONOMIC RESOURCES OF THE ROAD TRANSPORT COMPLEX.....	103-108
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i> TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI .....	109-115
<i>Raximjonov Kamronbek Ixomjon o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH .....	116-121
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> АКАДЕМИК ИБРОҶИМ МЎМИНОВ ИЛМИЙ ЖАСОРАТИНИНГ ЯНГИ ҚИРРАСИ .....	122-128
<i>Talabov Baxriddin Alijanovich</i> KONSTITUTIONIZM DEMOKRATIK RIVOJLANISHNING ASOSI SIFATIDA .....	129-134
<i>Tajibaev Muxiddin Abdurashidovich</i> JAMIYAT HAYOTIDA SINERGETIK DUNYOQARASH PARADIGMASINI TADQIQ QILISHNING AHAMIYATI .....	135-140
<i>Солиев Икромжон Комилжонович</i> РАҚАМЛИ ДУНЁДА ИНСОН ҚАДРИ МУАММОСИ: ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИН ....	141-147
<i>То'хтайев Hakim Primovich</i> TASAVVUF TA'LIMOTLARIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING NAMOYON VO'LISH XUSUSIYATLARI .....	148-153
<i>Уразалиева Гулшада</i> СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ «ГЕНДЕР» В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ .....	154-160
<i>Гуламова Мавжуда Ташпулатовна</i> ИЖТИМОЙ АХЛОҚ МЕЗОНЛАРИНИ ЎРГАНИЩДА КУМУШХОНАВИЙ ВАСИЯТНОМАЛАРИНИНГ ЎРНИ .....	161-165
<i>Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li</i> GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-DUNYOVIY DAVLAT SIFATIDAGI MAQOMI (IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL) .....	166-171
<i>Quvonov Sardor Zokirovich</i> MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA "MANOQIBI SHAYX XUDOYDOD VALIY" ASARINING AHAMIYATI .....	172-179
<b>10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	

<i>Халметова Меҳрибону Гайратжонова</i> ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛЕКСИКИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ .....	180-186
<i>Abdijabbor Amanov</i> MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIKNING MATNNING KATTA BIRLIGI SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	187-194
<i>Umarova Xurshida Zikiryoхonovna</i> AQSH ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK ROMAN TADRIJI .....	195-203
<i>Odinayev Bekqul Imamqulovich</i> LISONIY SHAXS: TA'RIF, TAHLIL, TALQIN .....	204-210
<i>Jaloliddin Jo'rayev, Jamoliddin Jo'rayev</i> "DEVONI LUG'ATIT-TURK" VA "GULSHAN UL-ASROR"DAGI QADIMGI TURKIY SO'ZLAR QIYOSI .....	211-217
<i>Saidov Akmal Azimovich</i> "TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI" YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARDA MADANIYATLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH .....	218-224
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINI SUDYALARNING CHINAKAM HAMJAMIYATI ORGANIGA AYLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY MASALALARI .....	225-231
<i>Жўраев Дилмурот Мухторович</i> МАЪМУРИЙ ВА ОММАВИЙ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН НИЗОЛАРНИ СУДДА ҲАЛ ЭТИШДА КЕЛИШУВ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР .....	232-240
<i>Эшонхонов Камолхон Маматхонович</i> БАНД СОЛИНГАН МУЛКНИ ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА ТАСАРРУФ ЭТИШ ЖИНОЯТИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШДАГИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР.....	241-246
<i>Бўриев Одил Қобилович</i> КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ИНСОН ҚАДРИНИ ЮКСАЛТИРИШ МЕЗОНИДИР .....	247-253
<b>13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Umarzoda Shohruh Azamat o'g'li</i> "ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH ASOSLARI" FANI MAZMUNI VA O'QITISHNING MAVJUD HOLATI .....	254-259
<i>Эргашева Гули Исмоил кизи, Инамова Гуллола</i> ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ КОММУНИКАЦИИ.....	260-265

<i>Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI VARIANTIV TUSHUNCHALAR ASOSIDA O'QITISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O'RNI .....	266-271
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI .....	272-277
<i>Ботиров Азизбек</i> РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....	278-283
<i>Эшбеков Сардор Журакулович</i> ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШИНИГ МУҲИМ ОМИЛИ .....	284-288
<i>Abdullaeva Feruza Suyunovna</i> KASBIY TERMINOLOGIYANI O'RGATISHDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....	289-293
<i>Ortiqov Oybek Rustamovich</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING TASHKIL ETILISHI.....	294-298
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING "TIL VA NUTQ" MARKAZIDA INNOVATSION FAOLIYAT OLIB BORISH .....	299-303
<i>Robiya Mannopova</i> INNOVATIVE COMPETENCY AS A CORE COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS.....	304-308
<i>Qodirov Olim Odilovich</i> REFLEKSIV YONDASHUV, UNING MOHIYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	309-314
<i>Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna</i> TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	315-322
<i>Xasanova Gulsanam Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATDA MAGISTRATURA TALABALARINING TASHKILIY- BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI .....	323-328



08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

**Raximjonov Kamronbek Ilhomjon o'g'li**  
TDIU mustaqil tadqiqotchisi  
"IV harbiy qism xizmat boshlig'i"  
Email: [kamronrahimzonov@gmail.com](mailto:kamronrahimzonov@gmail.com)

### **DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH**

**Annotatsiya.** Bugungi kunda respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, davlat dasturlari ishlab chiqilgan bo'lsada korrupsiyaga oid jinoyatlar soni o'sib bormoqda. Quyida keltirilgan statistik ma'lumotlarda budjet va budjetdan moliyalashtiriluvchi tashkilotlarda davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsion holatlar uchrab turibdi. Ushbu maqolada davlat haridlarini amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsion holatlarni kelib chiqish sabablari va ularni oldini olishda foydalanish mumkin bo'lgan taklif va mulohazalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish, poraxo'rlik, lavozimni su'istemol qilish, korrupsiyaviy jinoyatlar.

**Rakhimjonov Kamronbek Ilhomjon ugli**  
Independent researcher TSEI  
Head of the Military Unit Service  
of the Ministry of Internal Affairs

### **PREVENTION OF CORRUPTION IN PUBLIC PROCUREMENT**

**Abstract.** Today, a number of bills and state programs in the field of combating corruption have been adopted in our republic, but the number of crimes in the field of corruption is growing. According to the statistics presented below, there are cases of corruption in the implementation of public procurement in budgetary organizations. This article presents the causes of corruption that occurs in public procurement, as well as suggestions and considerations that can be used to prevent them.

**Key words:** corruption, fight against corruption, bribery, abuse of power, corruption crimes.

**Рахимжонов Камронбек Илхомжон угли**  
Независимый исследователь ТГЭИ,  
Начальник службы войсковой части МВД

### **ПРОФИЛАКТИКА КОРРУПЦИИ ПРИ ОСУЩЕСТВЛЕНИИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК**

**Аннотация.** В настоящие дни в нашей республике принято ряд законопроектов и государственных программ в сфере борьбы с коррупцией, но количество преступлений в коррупционной сфере растёт. Согласно представленным ниже статистическим данным, имеются случаи коррупции при осуществлении государственных закупок в бюджетных организациях. В данной статье приведены причины коррупции, возникающие при осуществлении государственных закупок, а также предложения которые можно использовать для их предотвращения.

**Ключевые слова:** коррупция, борьба с коррупцией, взяточничество, злоупотребление властью, коррупционные преступления.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I10Y2023N16>

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab, barcha sohalarda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Korrupsion muhit va sxemalarning mavjudligi har qanday davlatning, jamiyatning rivojlanishiga katta to'siq bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada bugungi kunda davlat xaridlari tizimida avj olgan korrupsion sxemalar hamda ularni bartaraf etish uchun bir qator taklif haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lgan yosh avlod uchun ilm maskanlarini qurish, aholi salomatligini ta'minlash uchun tibbiyot muassasalari va kasalxonalar barpo etish, ko'priklar va yo'llarni ta'mirlash hamda davlat siyosatining boshqa ijtimoiy-siyosiy vazifalari davlat buyurtmalari orqali amalga oshiriladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ushbu maqolada mamlakatimizda byudjet va byudjetdan moliyalashtiriluvchi korxonalar va tashkilotlarda davlat xaridlarini amalga oshirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, korrupsiyani oldini olish yo'nalishlariga muvofiq nazariy fikr mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, mamlakatimizda davlat xaridlari sohasida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi asosiy sabablarni aniqlash, ularning oldini olish bilan bog'liq muammolarni hal qilish, amaldagi qonunchilikda mavjud kamchiliklarni to'ldirish va bartaraf etishning nazariy-metodologik asoslari bo'lib xizmat qiladi.

Davlat xaridlari sohasida korrupsiyani oldini olishning nazariy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlar S.S.Shuvalov, M.I.Ribakova, M.V. Shmeleva, V.V. Daragan, E. V. Balatskiy, A.B. Gusev, N. A. Ekimova, L.V. Andreeva, A.V. Delyakina, L.L. Lozenko va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rganishimiz mumkin. Xususan, mahalliy olimlar X.Rajabov, U.O'roqov, U.A.Burxonov, E.Sh.Sherqulov, D.Bobobekova, Q.R.Chinqulovlarning ilmiy ishlarida davlat va korporativ xaridlarni takomillashtirish va korrupsiyani oldini olish masalalari tadqiq etilgan.

Olib borayotgan mazkur tadqiqot ishimizda bir qator ilmiy izlanish uslublaridan foydalanilgan. Xususan umumlashgan iqtisodiy tahliliy metodika, statistik-analitik tizimli tahlil olib borish, tizimli qiyosiy taqqoslama tahlil kabilar bunga misol bo'la oladi.

**Muhokama.** Korrupsiyaga qarshi kurashish mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Oxirgi yillarda respublikamizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish nafaqat davlat xaridlari sohasida, balki iqtisodiy sektorning, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida ham keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilmogda. Davlat xaridlari — davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta'minlash jarayoni.[1] Xususan, davlat organlarining zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarishda ko'p holatlarda yuzaga keladigan korrupsion holatlarni oldini olish tizimini takomillashtirish hamda davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy etish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak"[2], deb haqli ravishda ta'kidlaydi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq davlat xaridlari strategik subyektlari amalga oshiradigan davlat xaridlariga, rivojlantirish davlat dasturlarini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan loyihalarni ro‘yobga chiqarishda amalga oshiriladigan davlat xaridlari bundan mustasno”[3] kabi tushunchalar bilan takomillashtirildi.

“Davlat xaridlari tizimining shaffofligini ta‘minlash hamda uni yanada takomillashtirish hisobiga korporativ buyurtmachilar, shu jumladan strategik ahamiyatga ega bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va korxonalar mablag‘larining maqsadli sarflanishini ta‘minlash hamda samaradorligini oshirish, davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish”[4] kabi ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat va korporativ xaridlarning asosiy prinsiplaridan biri bo‘lgan korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik haqiqatdan ham global muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Shuningdek manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish ham asosiy vazifadir. Manfaatlar to‘qnashuvi — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan yoxud ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat [5]. Hisob palatasining hisobotiga ko‘ra, Davlat xaridlari jarayonida 763 ta holatda 971,1 mlrd so‘mlik manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilganligi va boshqa qonun buzilishi holatlari aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralarga 30 dan ortiq ko‘rsatmalar berilgan. Ajratilgan mablag‘larning samarali va maqsadli ishlatilganligi, bajarilgan qurilish-ta‘mirlash ishlarining sifati bo‘yicha davlat xaridlarining qonuniyligi yuzasidan jami 677,6 mlrd so‘mlik xato va kamchiliklar hamda tender savdolarida 3,5 trln so‘mlik qonun buzilishi holatlariga yo‘l qo‘yilgan.[6]

Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2021-yilning 6 oyi mobaynida 2544 nafar mansabdor shaxsga nisbatan korrupsiya holatlari bilan bog‘liq bo‘lgan 1676 ta jinoyat ishlari tergov qilinib, sudlarga yuborilgan. Sud yakunlari bo‘yicha korrupsiyaga oid jinoyat ishlari bo‘yicha 592,5 mlrd. so‘m moddiy zarar yetkazilgani aniqlanib, shundan 170,8 mlrd. so‘mi (28 foizi) undirilib, 421,7 mlrd. so‘mi Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan undirilishi belgilangan.[7]

Mamlakatimizda byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish choralari ko‘rilmoqda hamda “Korrupsiyasiz soha” loyihalari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini tubdan oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar korrupsiya holatlarining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etishning ta‘sirchan tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Ushbu muhim vazifaga jamoatchilik nazorati va nodavlat sektorning boshqa vakillarini ham keng jalb etish zarurati tug‘ilmoqda.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish O‘zbekistonda davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylanib ulgurdi.

Buni so‘nggi yillarda sohaga oid qabul qilingan konseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan ma‘muriy islohotlar misolida ham ko‘rish mumkin, jumladan: korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishda islohotlarining asosiy hujjati hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni, O'RQ-419-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son farmoni va boshqalar. Mamlakatimizda xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslari yaratilgan. Xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati davlat xaridlarini rivojlantirish va takomillashtirishga ko'maklashish, davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablari buzilishlarining oldini olish va ularni aniqlash hamda davlat buyurtmachilarini, vakolatli davlat organlarini aniqlangan qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish maqsadida amalga oshiriladi [8; 113b.].

Hozirda amaliyotda keng uchraydigan davlat xaridlaridagi korrupsion sxemalarni (pul yuvish) ikkiga bo'lish mumkin:

a) davlat buyurtmachi (davlat organi) va tanlov (tender) ishtirokchisi (tadbirkor) o'rtasida o'zaro moddiy manfaatdorlik evaziga til biriktirish (korrupsion faoliyat);

b) tanlov (tender) ishtirokchilari (tadbirkorlar) o'rtasida o'zaro til biriktirish (jamoat kelishuvi).

Dastlab, bugungi kunda davlat buyurtmachisi (davlat organi) va tanlov (tender) ishtirokchisi (tadbirkor) o'rtasida o'zaro til biriktirish orqali turli usullar orqali yuzaga keladigan korrupsion holatlarni ko'rib chiqamiz.

Moddiy manfaatdorlik evaziga davlat buyurtmachisi (davlat organi vakili) o'ziga kerakli tanlov (tender) ishtirokchisi (tadbirkor) tanlovda (tender) g'olib bo'lishini ta'minlashi uchun bir nechta korrupsion usullardan foydalanishi mumkin. Ushbu qoidabuzarliklar ayrimlari qonunchilikdagi kamchiliklar sababli bo'lsa, ba'zilar nazoratning sustligidan kelib chiqishi mumkin.

**1. Tanlovni (tender) sun'iy ravishda o'tkazish.** Davlat buyurtmachisi (davlat organi vakili) tanlov (tender) talablarida tovar (ishlar, xizmatlar)ning xususiyatlarini oldindan ma'lum bo'lgan kerakli ishlab chiqaruvchi korxonalar (tashkilot)ning mahsulotiga moslashtirib tavsiflaydi. Natijada ushbu korxonalar (tashkilot) ma'lum bir ustunlikka ega bo'lgan holda tanlovda (tender) qatnashadilar va bu esa o'z navbatida korxonalar (tashkilot) g'olib bo'lishiga imkon yaratadi.

**2. Baholash tartibini buzish.** Korxonalar va tashkilotlarda davlat va korporativ haridlarni amalga oshirish uchun faoliyat yuritayotgan komissiya a'zolari tomonidan tanlovda (tender) qatnashish uchun taqdim etilgan hujjatlarni o'rganib chiqishda ma'lum bir ishtirokchilarga imtiyoz (preferensiyalar) berish. Zarur bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tenderda yutib chiqishi uchun buyurtmachi mahsulot (xizmat)ga zarur bo'lmagan talablarni qo'yish, narx-navoni oldindan belgilab olish.

**3. "Muddatni maksimal tarzda kamaytirish".** Tanlovning (tender) texnik vazifasini yoki loyihasini oldindan bir korxonaga ma'lum qilinadi va bu haqda boshqa ishtirokchilarning xabari bo'lmaydi. Ish va xizmatlarning yakunlash jarayonida ushbu ishni atayin qisqa muddat ko'rsatilib bajarish to'g'risida e'lon beriladi. Bu esa juda qisqa muddat ichida qolgan ishtirokchilar g'olib bo'lishdan umid qilmaydilar. Keyin esa, tanlov (tender) haqiqiy deb topish uchun korxonalar va tashkilotlar jalb qilinib, kerakligi g'olib deb topiladi.

**4. Tanlovning (tender) g'oliblikni kelishuvi.** Buyurtmachi o'ziga manfaatdor bo'lgan korxonalar va tashkilotlar yutib chiqishi uchun tanlov ishtirokchilari g'olib bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan tadbirkorlarga ma'lum bir haq evaziga tenderdan voz kechishni taklif qiladi.

Endi esa tanlov tender qatnashchilari (tadbirkorlar) o'rtasidagi o'zaro til biriktirish orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsion holatlarni o'rganib chiqamiz.

**1. Manfaaddorlik kelishuvi.** Odatda tadbirkorlar tanlov (tender) o'tkazishdan oldin o'zlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlarni uch xil narxda tijorat takliflarini taqdim etadilar (past, o'rta va yuqori). Shuning uchun amaliyotda turli korxonalar va tashkilotlarni tijorat takliflarini bir xil rekvizitlar, hattoki xatoliklar (matematik va grammatik) ham mavjud bo'ladi. Tanlov jarayonida begona korxonalar va tashkilotlar kelib qo'shilganda past narxli tijorat taklifi o'z-o'zidan g'oliblikni qo'lga kiritadi.

**Natija.** Mahalliy olimlarimizning fikricha respublikamiz iqtisodiyotini yuksaltirish va aholining tinch-totuv yashashi va xalqimizning farovonligini ta'minlashning asosiy omili bu — kuchli qonunchilik bazasini yaratish va korrupsiyani oldini olishga qaratilgan siyosatni olib borishdir. Davlat xaridlari sohasida raqobatbardoshlik muhitini yaratish eng ustuvor yo'nalishlardan biridir. Yuqoridagi tahlillarimizda tender savdolarining korrupsiya yetaklovchi usullari bilan tanishib chiqdik. Davlat xaridlari to'g'risidagi qonunning boshqa normativ hujjatlar bilan mutanosibligini ta'minlash eng asosiy vazifalardan biridir. Shuningdek davlat xaridlarini amalga oshirishda buyurtmachi tomon vakillarining muvaffaqiyatli loyihani amalga oshirganlarida ularni moddiy rag'batlantirish tizimini joriy qilish. Bu usul yordamida davlat xaridlari mutaxassislarining tender jarayonida korrupsion holatlarni amalga oshirishining oldini oladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirishda elektron boshqaruv imkoniyatlardan foydalanish lozim. Muvofiqlashtirish natijalari shu organ yoki korrupsiyaga qarshi kurash faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning o'zidagina qolib ketmasligi, parlament yoki jamiyatning manfaatlarini himoya qiluvchi boshqa tuzilmalar, shuningdek, fuqarolarni xabardor qilib borish maqsadga muvofiqdir [9; 93 b.]. Yana bir samarali usullardan biri butun Respublika bo'yicha davlat xaridlari sohasida faoliyat yuritayotgan ekspertlar bilan hamkorlikda o'quv amaliy seminar va treninglarini amalga oshirish kerak. Tender jarayonlariga jamoatchilik nazoratini tatbiq etish orqali loyihalarning manfaatlar to'qnashuvi va loyiha hujjatlarida keltirilgan amalga oshiriladigan ishlarining sifatli amalga oshirilishini ta'minlanadi. Qonunchilikning mukammal bo'lishi, jamoatchilik nazoratining joriy etilishi va mutaxassislarni rag'batlantirish korrupsion holatlarni oldini olishning eng ijobiy usullari turiga kiradi.

**Xulosa.** Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib Respublikamizda davlat xaridlari tubdan isloh qilish va korrupsiyadan holi tizimga aylantirish uchun quyidagi takliflarni keltiramiz:

1. Davlat xaridlarida teng raqobat muhitini ta'minlash maqsadida hukumat qarorlari asosida tender o'tkazmasdan to'g'ridan-to'g'ri (davlat mudofaa qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan holatlar bundan mustasno) shartnoma tuzish imkoniyatlarini hajmini qisqartirish va aniq mezonlarini belgilash kerak

2. Davlat xaridlari sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarni toifalarga ajratish orqali amaldagi qonunchilikni rioya qilishni mustahkamlash. Birinchidan, surunkali ravishda qonunchilikka rioya qilmasdan, turli xil g'ayriqonuniy yo'llar orqali daromad olayotgan korxonalar va tashkilotlarni qizil toifaga ajratish va ularni muntazam ravishda nazorat qilib borish. Ikkinchidan, korxonalar va tashkilotlarning tadbirkorlik faoliyati davomida vaqti-vaqti bilan shubhali holatlar mavjud bo'lganda, ammo ushbu harakatlar amaldagi qonunchilik buzulishiga olib kelmagan taqdirda sariq toifaga kiritish. Uchinchidan, korxonalar va

tashkilotlarning faoliyati to'la-to'kis qonun talablari doirasida bo'lgan taqdirda yashil toifaga ajratish va ularga doimiy ravishda amaliy yordam ko'rsatish.

3. Tadbirkorlarga davlat xaridlaridagi mavjud korrupsion sxema va kelishuvlardan voz kechish bo'yicha jamoatchilik nazoratini olib borish, profilaktika ishlarini kuchaytirish, shuningdek ularda korrupsiya jamiyat rivojiga katta zavol ekanligi to'g'risida tushunchalar shakllantirish.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni;
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020 yil 24 yanvar. Manba: [www.president.uz/uz/lists/view/3324](http://www.president.uz/uz/lists/view/3324)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi PQ-3953-sonli Qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi 5-dekabrdagi "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4544-son Qarori
5. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni, O'RQ-419-son
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasining 2021-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti haqida" qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6000473>
7. Burhonov A. Qonunchilik palatasi majlisida korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining "O'zbekiston milliy manfaatlariga va xalqaro imijiga zarar yetkazuvchi jinoyatlarni tergov qilish natijalarini kompleks tahlil etish to'g'risida"gi axboroti 2021-yil 24-sentyabr. <https://kun.uz/uz/news/2021/09/25/2020-yil>
8. O'roqov U.Yu. Davlat xaridi. O'quv qo'llanma. T.: «Nihol print» OK, 2022. 190-192b.
9. Raximjonov K.I. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishni takomillashtirish istiqbollari// «EVROSIAN JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES»jurnali 2022. - №13 90-94b.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 10 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).